

“HIBATUL HAQOYIQ”DAGI QADIMGI TURKIY SO‘ZLAR

f.f.f.d.(PhD), Sindorov Lutfulla Kurolovich
O‘zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali
lutfulla1803@mail.ru

Annotatsiya. «Hibatul haqoyiq» dostonida qadimgi turkiy tilga doir qator so‘zlar qo‘llanishda bo‘lgan. Maqolada mana shu so‘zlarning semalari, etimologiyasi yoritilgan. «Hibatul-haqoyiq»dagi leksik birliklar qadimgi turkiy til, Oltun yorug‘, Turfon matnlari, O‘rxun-Yenisey manbalari, qoraxoniylar davri hamda XIV asr manbalarida qo‘llanilgan so‘zlar bilan qiyosiy tahlil qilingan.

Tayanch so‘z va iboralar: Ahmad Yugnakiy, “Hibat ul-haqoyiq”, sema, leksema, leksik birlik, qadimgi turkiy til, Oltun yorug‘, Turfon, O‘rxun-Yenisey, “Devonu lug‘otit turk”, “Qutadg‘u bilig”.

O‘zbek tili turkiy tillar oilasiga kiradi va bu til uchun turkiy tillarning negiz leksikasi qadimiy asos hisoblanadi. Shu sababli ham o‘zbek tili so‘z boyligining qadimiy o‘z negizi aslida turkiy tillarning o‘ziniki bo‘lgan tub turkiy so‘zlardan iborat. Ko‘rinadiki, tub so‘zni belgilovchi asosiy mezon, birinchidan, bu so‘zning genetik jihatdan o‘sha tilniki ekanligi, ikkinchidan, uning qadimiy davrlarga oidligidir [6.135].

Ma‘lumki, obida tilida iste‘molda bo‘lgan tub turkiy so‘zlarning tarixi ko‘hna yozma manbalarga borib taqaladi. Zero, mazkur yodnomalar umumxalq tilining muhim xususiyatlarini o‘zida mujassam etgan bo‘lib, xalqning qadimgi madaniyatini aks ettirgan. Ular orqali xalqimiz tarixi va tilimiz taraqqiyotiga oid ko‘pgina qimmatli ma‘lumotlarga ega bo‘lamiz [4.115]. Shu nuqtayi nazardan, qissa so‘z boyligini qadimgi turkiy til yodgorliklarida qayd etilgan leksik birliklar bilan qiyosiy o‘rganish asardagi arxaik so‘zlar hamda ularning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlashga ko‘maklashadi.

Til tizim sifatida uzluksiz harakatda, rivojlanishda bo‘lib turadi. Bu uning ijtimoiy mohiyatidan kelib chiqadi: til va jamiyat, til va ong, til va tafakkur o‘rtasidagi ikki tomonlama aloqadorlik ularning bir-biriga ta‘sirini belgilaydi – jamiyatda yuz beradigan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, ilmiy-texnikaviy taraqqiyot, iqtisodiy va ma‘rifiy sohalardagi islohotlar tilning lug‘at boyligida yangi-yangi so‘z va atamalarning vujudga kelishini, ayni paytda, ma‘lum leksemalarning eskirib, tarixiy kategoriyaga aylanishini taqozo qiladi [7.67].

Izlanishlar shuni ko‘rsatdiki, «Hibatul haqoyiq» dostonida qadimgi turkiy tilga doir qator so‘zlar qo‘llanishda bo‘lgan. Ularning ayrimlari asar lug‘at fondida asl holicha, ba‘zilar juz‘iy fonetik o‘zgarishlar bilan ifodalangan. Xususan, dostonida “mehnat, qiyinchilik” **emgäk** so‘zi bilan berilgan: *Küč emgäk tegürmä kişigä qalī*. Mazkur leksema Oltun yorug‘ va Turfon matnlarida ilk bor keltirilganligini “Qadimgi turkiy lug‘at”(Drevnetyurkskiy slovar) dan bilib olish mumkin: *ačmaq suvsamaq emgäki* (DTM,172). Atama “qiynalmoq, zahmat chekmoq” ma‘nosidagi **emgä-** (DTM,172) fe‘liga –**k** affiksini qo‘shish orqali hosil qilingan.

Asarda **eš** so‘zi «o‘rtoq» ma‘nosini anglatgan: *Nečä ma inančlıq eš ersä yaqın*.

Bu leksema dastlab Yenisey manbalarida ishlatilgan (DTM,184).

Arqış Kul tegin bitigtoshida “karvon”, Turfon matnlarida “xabarchi, chopar” semalarida qo‘llanishda bo‘lgan (DTM,172). Dostonda uning «karvon» ma’nosini uchratamiz: *On arqış ozadī qopub yol tutub*.

Turfon matnlarida **asīg** «foйда» ma’nosini anglatgan: *Yunt kündä asīg bolur* (DTM,60). Qayd etilgan so‘z «Hibatul haqoyiq» asarida mazkur ma’noda qo‘llanishda davom etgan: *Tavar asīg nemiš barursan yalıñ*. **Asīg** “ko‘paytirmoq, qo‘shimcha qilmoq” ma’nosidagi **aš-as-** (DTM,62) fe’li bilan - **(i)ğ** qo‘shimchasidan yasalgan.

«Dushman» ma’nosini ifodalagan **yağī** so‘zi ilk bor O‘rxun – Yenisey manbalarida keltirilgan: *Tabğaç qağan yağimīz erti* (DTM,224). Tekshiruvlar bu leksema o‘rganilayotgan manbada asl ma’nosida ishlatilganligini ko‘rsatdi: *Öküš yañsağan til ay almas yağī*.

Dostonda **čīgay** «kambag‘al» semasida qo‘llangan. Mazkur so‘z dastavval Turfon matnlarida ishlatilgan (DTM,147). Ayni paytda, asarda **čīgay** (DTM,148) so‘zi **-liq** affiksi yordamida **čīgayliq** «kambag‘allik» leksemasini yasagan: *Ğığayliq teb ayma azuq yoqluğın*. Bu o‘z navbatida, qadimgi turkiy tilda muomalada bo‘lgan ayrim so‘zlar keyingi davr manbalarida o‘z ma’nosini davom ettirish bilan birga, yangi leksemalar hosil qilishda faol ishtirok qilganligini ko‘rsatadi.

Saqin- fe’li Kultegin bitigtoshida “xafa bo‘lmoq”, “bezovta bo‘lmoq”, “Oltun yorug‘” va Turfon matnlarida «o‘ylamoq» ma’nolarini bildirgan (DTM,486). «Hibatul haqoyiq» asarida esa «o‘ylamoq»: *Ol işniñ oñini soñini saqin*; “ehtiyot bo‘lmoq”: *Ešim teb inanīb sīr ayma saqin*; “saqlanmoq”: *Asīqsiz jadal ham mizajtīn saqin* kabi semalarda qo‘llangan. Ushbu so‘z Turfon matnlarida ishlatilgan “zabotitsya” ma’nosidagi **saqi** - (DTM,486) fe’lidan hosil bo‘lgan.

Yodnomada «oyoq» ma’nosida kelgan **ađaq** “Devonu lug‘otit turk” hamda Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” (DTM,14) asarlarida qayd etilgan tarzda ifodalangan. Bu so‘z dastlab Kultegin yodgorligi va moniy yozuv manbalarida **adaq** fonetik shaklida uchraydi (DTM,8).

“Ovqat, yegulik” tushunchasini bildirgan **azuq** leksemasi ilk bor Kul tegin bitigida keltirilgan: *Azuqī yoq erti* (DTM,73). Ushbu so‘z Mahmud Koshg‘ariyning “Devon”i hamda “Tafsir”da o‘zining asl semasini saqlagan: *Sartniñ azuqī ariğ bolsa, yol üzä yer* (1,97); *Ta’amniñ qamuğın alurlar biz farzandalrīmiz birlä azuqsiz qalurmiz* (89b6). XIV asr Xorazm yozma manbalarida **azuq**, **azīq** shakllari kuzatiladi: *Vafādīn öñ bu yolda azuqum yoq* (XIII,83a16); *Payğambar aydi: ya Hadiča mähä azīq qilu bergil* (NF,4b8). Ushbu leksik birlik doston tilida faol iste’molda bo‘lgan: *Čığayliq teb ayma azuq yoqluğın*.

XI asr manbalarida «boshqa» semasini anglatgan **ađin** (DTM,15) leksemasi «Hibatul haqoyiq» asarida ayni shakl va ma’noda kuzatiladi: *Ökünč ol aña yoq oñ anda azin*. Turfon matnlari va “Oltun yorug‘” asarida mazkur leksemaning dastlabki, ya’ni **adīn** fonetik varianti ko‘zga tashlanadi (DTM,10).

Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida **iđi** “tangri” ma’nosida ishlatilgan (DTM,203). Mazkur so‘zning ilk shakli **idi** bo‘lib, Kultegin yodgorligida “sohib, ega”: *Ötükändä yig idi yoq ermiš*, “Qutadg‘u bilig” dostonida “Xudo”: *Ay yer kök idisi* semalarini bildirgan (DTM,203). O‘rganilayotgan manbada qayd etilgan leksemaning **iđi** fonetik varianti “sohib, ega”: *Aya mal iđisi axī eđgü er*; “tangri”: *Bu*

bayliq čigayliq idi qismati ma'nolarini anglatgan. Bugungi kunda ham **idi**→**idi**→**eđi**→**egä** shaklida "sohib" ma'nosida qo'llanib kelmoqda. "Tangri" ma'nosi esa Egamqul, Egamberdi, Egamnazar, Egamshukur [3.508] kabi antroponimlar tarkibida uchraydi. Shuningdek, asarda mazkur so'zning **uğan** sinonimi ham kuzatiladi: *Uğan hukmi birl birlä kelür kelgän iş*.

Ahmad Yugnakiyning «Hibatul haqoyiq» asarida **az** "adashmoq, yanglishmoq" ma'nosida ifodalangan: *Takabbur libasın keyib az salın*. Ushbu so'z ilk bor Turfon matnlarida ayni ma'noda keltirilgan: *Yol azsar ew tapmaz* (DTM,72).

"Bilim" tushunchasi ilk marta Kul tegin bitigtoshida "bilim-tajriba orttirmoq" ma'nosini anglatgan **bilig** leksemi yordamida ochib berilgan: *Ayiğ bilig anta öyür ermiş* – ular u yerdan o'zlariga yomon bilimlarni o'zlashtirib olgan (DTM, 99). Leksema "Devonu lug'otit turk" da o'zining asl ma'nosini davom ettirgan: *Ula bolsa yol azmas, bilig bolsa söz yazmas* – belgi bo'lsa odam yo'ldan adashmaydi, bilim bo'lsa kishi so'zda yanglishmaydi (MK,I,108). Shuningdek, Mahmud Koshg'ariy ushbu so'zning "aql, idrok", "hikmat" (I,367) ma'nolarini ham ko'rsatib o'tadi: *Bilig kişi ara ülüglüg ol* – aql insonlar o'rtasida taqsimlangan (DTM,100). Berlin to'plamidagi uyg'ur yozuvida bitilgan hujjatlarda leksik birlikning to'rtinchi, ya'ni "ehtiyotkorlik" ma'nosi uchraydi: *Yiti biligin yarmış kergäk* – yarani juda ehtiyotkorlik bilan ochish lozim (DTM,100). Dostonda "bilim" ma'nosida uchraydi: *Bilig birlä bilnür sa'adat yolı*. O'rganilayotgan so'z **bil-** fe'lidan **-(i)g** affiksi orqali yasalgan.

Učuz sifati ilk marta qadimgi turkiy tilda "osongina", "ozgina, arzimas, ahamiyatsiz" ma'nolarida iste'molda bo'lgan: *Ol oğlan ögin emgätmädin uçuz toğğay* – Bu bola onasiga qiyinchilik tug'dirmasdan oson dunyoga keldi; *Taqi ağırliğ bolğay men taqi uçuz bolğay men* – u yana ko'p hurmatga sazovor bo'ladi, men esa ahamiyatsiz, e'tiborsiz qolaman (DTM,604). "Devonu lug'atit turk"da so'zning "arzon" semasi kuzatiladi: *Učuz nāñ* – arzon narsa (DTM,604). Tadqiqot ob'ekti qilib olingan manbada leksemaning "arzon, jo'n" ma'nosi ko'zga tashlanadi: *Joz atlas bolur qiz uçuzi bözüg*.

Zikr etilgan misollardan ayonki, dostonda qo'llanilgan ko'pgina so'zlarning tarixi qadimgi turkiy tilga borib taqaladi. Demak, qo'hna so'zlarni tadqiq etish o'sha davrdagi urug', qabila va xalqlarning o'zaro munosabatini o'rganishga, leksemalarning kelib chiqishini aniqlashga yordam beradi.

Shartli qisqartmalar

ДТС – Древнетюркский словарь. –Л.: Наука, 1969. -676 с.

МК – Махмуд Кошғарий. Девону луғотит турк / Таржимон ва нашрга тайёрловчи С.М. Муталлибов. И-ИИИ. –Т.: Фан, 1960-1963.

НФ – Нахджул – фарадис // Фазылов Э. Староузбекский язык. Хорезмийские памятники ХИВ в. И-ИИ. –Т.: Фан, 1966-1971.

Тафсир – Боровков А. К. Лексика среднеазиатского тefsира ХИИ- ХИИИ. вв. –М.: Изд-во восточной лит-ры, 1963.

ХШ – Кутб. Хосрав и Ширин // Фазылов Э. Староузбекский язык. Хорезмийские памятники ХИВ в. И-ИИ. –Т.: Фан, 1966-1971.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdushukurov, Baxtiyor. "XI—XIV asr turkiy yozma manbalarda qo'llanilgan zoonimlar." *Oltin bitiglar–Golden Scripts* 1.1 (2019).
2. Kurolovich, Sindorov Lutfulla. "Semantic Groups Of The Lexicon Of The Work Hibatul Hakoyik." *The American Journal of Social Science and Education Innovations* 2.07 (2020): 315-321.
3. Lutfulla, S. (2019). SOME ASPECTS OF THEONIMS IN THE WORK "KHIBATUL KHA KOIK" ("Gift of Truth"). *ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies*, 8(10), 91-97.
4. Алиев А., Содиқов Қ. Ўзбек адабий тили тарихидан. –Т.: Ўзбекистон, 1994. –118 б.
5. Бегматов Э. Ўзбек исмлари. –Т.: Ўзбек миллий энциклопедияси. 2007. – 608 б.
6. Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. –Т.: Фан, 1985. –200 б.
7. Жамолхонов Ҳ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. 2-қисм. –Т.: Тошкент давлат педагогика университети, 2004. –146 б.
8. Маҳмудов Қ. Аҳмад Югнакийнинг «Ҳибат ул-ҳақойиқ» асари ҳақида. –Т.: Фан, 1972. –300 б.
9. Синдоров, Лутфулла. "Ҳибат ул-ҳақойиқ достонидаги арабча ўзлашмаларнинг тарихий-этимологик таҳлили." *Современные инновационные исследования актуальные проблемы и развитие тенденции: решения и перспективы* 1.1 (2022): 610-613.

СУФФИКСАЦИЯ КАК АКТИВНЫЙ СПОСОБ ОБРАЗОВАНИЯ НЕОЛОГИЗМОВ В ТЕКСТАХ СМИ

Биксалиева Римма Рафиковна

Навоийского университета инноваций, Узбекистан

rina-sun@mail.ru

Аннотация. Анализируется суффиксация как один из активных способов словообразования в современных текстах СМИ как экспрессивно-маркированные единицы, как единицы с яркой экспрессией. Отмечается, в медийных неодериватах отражаются способы и механизмы приспособления общенародного языка к условиям его функционирования, изменяющимся под влиянием внешних факторов.

Ключевые слова: неологизм, суффиксация, масс-медиа, СМИ, семантика, экстралингвистические факторы.

Изменения в лексическом фонде национального языка – его обогащение новыми единицами или утрата единиц, существовавших ранее, – в весьма высокой степени (по сравнению с другими языковыми уровнями) определяются влиянием экстралингвистических факторов. «Всякая новая лексика есть